
TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA

Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikov bugun tuman "Dehqon bozori" MCHJda bo'lib, bozorda tashkil etilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi va bozor hududida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Tuman hokimi tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narx-navolarini asossiz oshirish holatlarini oldini olish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.



Fermer xo'jaliklari rahbarlari bilan joylarda yig'ilishlar o'tkazilib, 2021 yil hosili uchun boshoqli don ekilgan maydonlarda olib borilayotgan agrotexnik tadbirlarni tizimli tashkil etish hamda kuzgi shudgorlash ishlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.



